

## Gi De Mopassan Asarlarida Ayol Xarakterida Fojeaviylik

*Jabbarova Maloxat Xamdamovna<sup>1</sup>, Rahimova Mohigul<sup>2</sup>*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada frantsuz va o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan adibi – Gi de Mopassanning roman va hikoyalarida ayol obrazlarida fojeaviylik va qahramonona pafosning tajassumi haqida fikr yuritilgan. Ijodkor asarlarida ayollar hayoti bilan bog'liq fojeaviylik, ayol qismati bilan bog'liq og'ir holatlar, ayollarning jamiyat va oiladagi hayoti, turmush va mehnat sharoitidagi qiyinchiliklar realistik bo'yoqlarda ochib berilgan. Ayollar xarakteridagi qahramonlik, jasurlik, mardonalik sifatleri yuksak pafosda ko'rsatilgan. Xususan, vatanparvar, mehnatsevar, oilaparvar, erksevar ayollar, fidoyi onalar obrazi mehr va hurmat ruhi bilan tasvirlangan.

**Kalit so'zlar :** Fojeaviylik, qahramonona pafos, illat, xarakter, yaxlit, ayol, qiz, kelin, er, xotin, rafiqa, qaynona, yosuman, jodugar, oqsoch.

Ayrim ayollar xarakterida insoniy illatlar aks etadiki, bu ayol tasviridagi fojeaviylikdan darak beradi. Shuning uchun ba'zi adiblar salbiy tipga mansub xarakterlarni o'z ijodida xuddi yaxlit muammo sifatida talqin etishgan. Buni frantsuz adibi Gi de Mopassan ijodida kuzatish mumkin.

Gi de Mopassonning “Hayot” romanida yaqinda turmushga chiqqan yoki turmushga chiqayotgan qizlar xarakterida kelinlar tipi namoyon etilgan. Rafiqa tipida umr yo'ldoshi aks etib, mazkur tipdagi xarakter asar voqealari jarayonida faqat rafiqa sifatida namoyon bo'lgan. Qiz xarakteridagi kuchli tuyg'ular esa uning o'z ekanligini ko'rsata boshlaydi. Uning sof tuyg'ulari farzand ko'rganidan keyin yanada ochiq ko'rinadi.

Qahramon hayotidagi og'ir damlar (eri, ota-onasining o'limi) ba'zida uni holdan toydirib qo'yadi. Shunga qaramay, ayol murakkab va jiddiy muammolarning yechimini topishga majbur. Bunday muammolarga yechim topishda uning kitoblar o'qish orqali yiqqan tajribasi, oqsoch kundoshi maslahatlari va ko'rsatgan yo'l-yo'riqlari qo'l keladi.

“Hayot” romanida ayol xakteri tasvirlanar ekan, avvalo, obraz dinamikasi davriy bosqichlarda ko'zga tashlanadi. Bular: 1.Qahramonning qizlik davri. 2.Kelinchaklik davri. 3. Onalik davri. 4. Kundoshlik davri. 5. Xiyonatga uchrashi. 6. Bevalik davri. 7. Qaynonalik davri. 8. Buvilik, keksalik davri.

Ayollar, odatda, go'zallik hilqati sifatida ta'riflanadi. Ammo ular bilan bog'liq fojeaviylikni ham kuzatish mumkin. Shuning uchun jahon adiblari ijodida ayollar hayoti bilan bog'liq fojeaviylik yoritilgan asarlar alohida silsilani tashkil qiladi. Bu esa asarlarda ikki xil ifoda etiladi: birinchisi – ayolning o'z xatti-harakati, xarakter-xususiyati bilan bog'liq fojeaviylik; ikkinchisi – ayolga eri, qaynonasi, ba'zan o'z farzandi yoki boshqa biron-bir tomonidan yetkazilgan jabru jafodan kelib chiqqan fojeaviylik.

Gi de Mopassonning “Portda” hikoyasida fohishaxona va unga joylashib olgan ayollar, boquvchisi yo'qotib, yoshligi va g'o'rliqi sababli bu yerga kelib qolgan navjuvonlar fojiasi aks ettirilgan. Unda mastlik, fahsh, buzuqlik, ochko'zlik illatlari qalamga olingan. Ishratxonadagilarning bari insondagi hayvonlik boshvog'ini qo'yib yuborishgani ta'kidlangan.

Boylar o'z qo'llarida ishlaydigan oqsochlarga xuddi fohishalardek munosabatda bo'lishgani Gi de Mopassanning “Portda” hikoyasida va “Hayot” romanida juda ochiq tasvirlangan. Umuman aytganda,

<sup>1</sup>Buxoro davlat universiteti frantsuz filologiyasi kafedrasida katta o'qituvchisi

<sup>2</sup>BuxDU talabasi



Gi de Mopasson ijodida oqsoch ayol xarakterining o'ziga xos xususiyatlari qahramon siyrati ila qorishib ketadi. Ahamiyatli tomoni, u salbiy tipga mansub xarakterlar qatorida ko'rsatilib, salbiy xarakter tipi sifatida talqin etiladi.

Gi de Mopassanning Zumrad Orifjonova tomonidan tarjima qilingan yana bir mashhur hikoyasi "Do'ndiq"da o'zi fohisha bo'lsa-da, o'ta vatanparvar ayol obrazi aks ettirilgan. Bunda aslida haqiqiy hayosiz do'ndiq emas, balki o'zlarini baland tutgan, asl frantsuzlarmiz, deb lof uruvchi Luazo, Karre-Aamadon va de Brevillardir. Chunki ular o'z manfaati oldida vatanfuruslik qilishdan ham tap tortmaydigan hayosiz ayollardir.

Fohisha bo'lsa-da, o'z vatanining dushmanlariga murosasiz jasur qiz obrazi Gi de Mopassanning "Mademuazel Fifi" hikoyasida ham keltirilgan. Bu novellasi syujetida tanqidiy realizm yetakchi rol o'ynaydi.

"Mademuazel" so'zi, odatda, frantsuz xonimlariga nisbatan ishlatiladigan murojaat leksemalaridan biridir. Ammo "Mademuazel Fifi" hikoyasida bu so'zning erkak kishiga nisbatan qo'llangani kuzatiladi. Markiz Vilgelm fon Eyrikni o'rtoqlari Frantsiyaga kirganlaridan beri "mademuazel Fifi" deb atashardi. Uning bo'g'ib qo'yganday xipcha belligi, endi sabz qilib kelayotgan mo'ylovlik rangpar yuzi, sernozligi, yana asosan uning odatlanib qolgan bir xulqi – barcha jonli va jonsiz narsalarga nisbatan bo'lgan nafratini ifodalashda frantsuzchalab, hushtak aralash «fi, fi dons!» deb qo'yishi bunday nom olishiga sabab bo'lgan edi. Bizningcha, muallif inson jinsini farqlashga xizmat qiluvchi "mademuazel" so'zini ushbu o'rinda millatni farqlash maqsadida qo'llashni ko'zda tutgan.

Novellada fohisha qiz Rashel frantsuz ayollarini haqorat qilib "Fransiyaning butun xotinlari ham bizniki!" degan, Frantsiya yerini toptashdan zavqlangan poruchik Ottoning gaplariga chiday olmay, stoldagi kumush pichoqni uning bo'g'ziga sanchib o'ldiradi va qochib qoladi. Bir qancha vaqt o'tgach, uning qahramonlarcha qilgan ishiga shaydo bo'lgan bir vatanparvar uni fohishaxonadan olib chiqib, keyincharoq unga uylanadi. U ham boshqa ko'p xonimlardan qolishmaydigan xonim bo'lib qoladi.

Bunda adib Gi de Mopassan ayolning fazilatlarini qadrlash bilan birga, undagi aql-zakovatga, xususan, vatanparvarlik tuyg'usiga tan beradi. Ayol xarakteridagi fazilatlar va aql-zakovat esa asarda farishta ayol idealini vujudga keltirgan. Biroq fohisha taqdiri hayotda toblangan ayol rolining murakkab ko'rinishini ifodalaydi.

Gi de Mopassanning Zumrad Orifjonova tomonidan tarjima qilingan "Do'ndiq" hikoyasida o'zi fohisha bo'lsa-da, o'ta vatanparvar ayol obrazi aks ettirilgan. Bu hikoya, avvalo, sarlavhasi bilan e'tiborni tortadi. Chunki "do'ndiq" so'zi ko'pincha yoqimtoy, to'lishgan bo'lsa-da, lo'ppi va kelishganligi o'ziga yarashgan ayolga nisbatan qo'llangan. Hikoyaning o'zida bu haqda shunday izoh keltirilgan: "...haddan tashqari to'laligi bilan ko'zga tashlangani uchun unga "do'ndiq" deb laqab qo'yilgandi. U jajjigina, dum-dumaloqqina, semiz, terisi silliq va yaltiroq, barmoqlari bo'g'ib-bo'g'ib qo'yilgan sosiska singari, katta-katta ko'kraklari ko'ylagini turtib turgan, kishi sevsa sevguday, ko'plarni o'ziga giriftor qiladigan xotin bo'lib, uning beg'ubor sog'lomligiga qarab kishining bahri ochilar edi. Yuzlari qip-qizil olmaga, endi ochilay deb turgan pion g'unchasiga o'xshaydi; qop-qora chiroyli ko'zlarini o'siq va quyuq kipriklari yana ham qararoq ko'rsatadi. Mayda sadafdek oq tishlar, namlanib turadigan bejirim lablari bo'saga tayyor turgandek ko'rinadi".

Bizningcha, adib bunda bosh qahramonga "do'ndiq" laqabini berishida uning xarakteriga ham ishora qilgan. Bu bilan uning fohisha bo'lsa-da, aslida xarakterining og'ir-vazminligiga ishora qilgan.

Do'ndiq so'zi yosh bolalarga nisbatan ham qo'llanadi, ammo hech qachon erkak kishilarga nisbatan qo'llanmaydi.

Hikoyada g'olib prusslarga mag'lub frantsuzlarning istilo paytidagi munosabati tarix haqiqatiga muvofiq ko'rsatilgan. Dushman bosib olgan joylarda mahalliy aholi bosqinchilarga itoat etishga majbur bo'lganlar. Hatto ko'p oilalarda pruss ofitserlari xonadon sohiblari bilan bir dasturxonda ovqat eydigan ham bo'lishgan edi. Agar zobit durustroq tarbiya ko'rgan kishi bo'lsa, odob yuzasidan Fransiyaning holiga achinar va bu urushda qatnashish men uchun og'ir, der edi.



Ijodkor asarlarida ayollar hayoti bilan bog‘liq fojaviylik, ayol qismati bilan bog‘liq og‘ir holatlar, ayollarning jamiyat va oiladagi hayoti, turmush va mehnat sharoitidagi qiyinchiliklar realistik bo‘yoqlarda ochib berilgan.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Khamdamovna, J. M. (2023). NATIONAL PECULIARITIES IN THE REPRESENTATION OF THE FEMALE PSYCHE IN THE WORKS OF GUY DE MAUPASSANT AND ABDULLA QAHHOR. *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY*, 1(10), 31-37.
2. Khamdamovna, J. M. (2023). PSYCHOLOGISM IN THE IMAGE OF A WOMAN IN THE WORKS OF GUY DE MAUPASSANT AND ABDULLA QAHHOR. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(5), 490-498.
3. Khamdamovna, Jabbarova Malokhat. "In the Works of Guy De Maupassant and Abdullah Qahhor Tragedy in the Image of a Woman." *INTERNATIONAL JOURNAL OF LANGUAGE LEARNING AND APPLIED LINGUISTICS* 2.3 (2023): 71-75.
4. Khamdamovna, Jabbarova Malokhat. "THE INFLUENCE OF THE NATIONAL WORLDVIEW ON THE IMAGE OF THE WOMAN IN THE WORKS OF GUY DE MAPUASSANT AND ABDULLA KAHNAR". *ELECTRONIC JOURNAL OF ACTUAL PROBLEMS OF MODERN SCIENCE.* EDUCATION AND TRAINING. APRIL 4 (2022): 61-64.
5. Jabbarova, M. X. "Two Stories-Two Destines." *Journal of Contemporary Issues in Business and Government* Vol 27.2 (2021).
6. Khamdamovna, Jabbarova Malokhat. "NATIONAL PECULIARITIES IN THE REPRESENTATION OF THE FEMALE PSYCHE IN THE WORKS OF GUY DE MAUPASSANT AND ABDULLA QAHHOR." *THE THEORY OF RECENT SCIENTIFIC RESEARCH IN THE FIELD OF PEDAGOGY* 1.10 (2023): 31-37.
7. Жаббарова, Малохат. "ВЛИЯНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО МИРОВОЗЗРЕНИЯ НА ОБРАЗ ЖЕНЩИНЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ГАЙ ДДЕ МАПУАССАНА И АБДУЛЛЫ КАХАР." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 20.20 (2022).
8. Жаббарова, Малохат. "TYPOLOGY OF MENTALITY IN THE IMAGE OF A WOMAN." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 43.43 (2023).
9. Жаббарова, Малохат. "A DESCRIPTION OF THE ARTISTIC IMAGE OF THE WORKS OF GUY DE MORASSAN AND ABDULLAH QAHNAR." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 45.45 (2024).
10. Жаббарова, Малохат. "TYPOLOGY OF MENTALITY IN THE IMAGE OF A WOMAN." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 43.43 (2023).
11. Жаббарова, Малохат. "ГИ ДЕ МОПАССОН ҲАМДА АБДУЛЛА ҚАҲҲОРНИНГ АЁЛЛАР ТАСВИРИДА АЛВАСТИ ВА ЁСУМАН ОБРАЗЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ МАҲОРАТИ." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 36.36 (2023).
12. Жаббарова, Малохат. "ОПИСАНИЕ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ОБРАЗА ПРОИЗВЕДЕНИЙ ГИ ДЕ МОПАССАНА И АБДУЛЛЫ КАДИРИ." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 20.20 (2022).

